

AMUDARYO KECHUVLARI TARIXI

Berdiyeva Tursunoy Eshmurot Qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13925727>

Annotasiya. Qadim qadimdan mavjud bo'lgan, O'rta Osiyoning madaniyatiga zamin bo'lgan Amudaryo va uning kechuvlari, u orqali Eron Ahamoniylari, yunonistonlik Iskandarning kirib kelishi, kushonlar, ilk va rivojlangan o'rta asrlarda Amudaryo kechuvlari kirib kelgan bosqinchilarning tarixi haqida va aynan shu kechuvlar orqali savdning rivojlanishi natijasida ijtimoiy, siyosiy, iqsodning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Amudaryo, Boburnoma, Sho'rob, Cho'chqaguzar, Termiz, delta, kechuv.

Abstract. About the history of the history of the Amu Darya and its crossings, the Achademenids of Iran, the arrival of Alexander the Great, the Kushans, the invaders of the Amu Darya in the early and advanced Middle Ages, and these crossings, serves as a basis for the development of social, political, economic as result of the development of trade.

Key words: Amu Darya, Boburnoma, Sho'rob, Cho'chqaguzar, Termiz, crossing.

KIRISH

Qadimgi ajdodlarimiz O'rta Osiyoning sersuv daryolarini o'zlashtirishni tosh davridan boshlagan bo'lsa, eneolit va bronza davriga kelib bu jarayon yanada kengaydi. Shu o'rinda Amudaryo suv yo'li va uning kechuvlari haqida aytib o'tishimiz lozimdir. Amudaryo o'zani bundan 22 ming yilcha oldin yani Golosen davridan shakllana boshlagan. Aynan shu davrga kelib Oqchadaryo va Sariqamish deltasining shakllanib, Amudaryoning suvi Orolga qo'yilishi yuz beradi.¹ Abulg'oziyning aytishicha, daryo XVI asrning o'rtalarida Orolga quyilgan va shu sababli Urganch suvsiz qolgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Amudaryoning Orolga qarab quyilishi Abdullaxon II ning Xorazm ustiga qarab yurishi bilan bog'liq degan qarashlar ham mavjud. Unga ko'ra Abdullaxon II ning buyrug'i bilan Amudaryo suvi yunalishi maxsus to'g'on yordamida o'zgartirilgan.² Amudaryoning Sho'rob kechuvi yonida kushonlar davriga oid Kampirtepa yodgorligi bo'lib, bojxona vazifasini bajargan va kushonlarning iqsodiy va siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan obyekti hisoblangan. Amudaryo nechi asrlar ikki qirg'oqda istiqomat qilivchi xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy ko'prik bo'lib xizmat qilgan. Asrlar davomida Amudaryoning chop qirg'og'I hamda Sharq va G'arb davlatlarini bir-biri bilan bog'lovchi yo'lda joylashgan Surxon vohasi o'ziga xos halqa vazifasini bajargan. Qadimshunos olimlar va arab va

¹ Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgai madaniyati. (Mil.avv.VIII-Mil. IV Asrlar). Tosh. "Inavatsiya-Ziyo" 2020.56-59.

² Hofiz Tanish Al-Buxoriy. "Abdullanoma". Tosh. "Sharq", 2000. 130-136 bet.

fors manbalarda Oks kechuvlari haqida ma'lumot bergan. Qorakamar, Cho'chqaguzar, Shurob, Termiz, Xotinrabot aynan Surxon vohasida joylashgan va aynan shu kechuvlar yonida karvonsaroylar ham bo'lgan.

XIX asrning 50-yillarda yarim mustaqil bekliklar sifatida faoliyat yuritgan Surxon vohasi yerlari 1868-yili Rossiya-Buxoro shartnomasidan keyin Buxoroning siyosiy hududiga aylandi. Surxon vohasining XVI-XIX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va bunyodkorlik ishlari ham bevosita Buxoro amirligi bilan bog'liq. Surxon vohasi haqida gap ketganda biz albatta qadimiy shaharlariga, me'moriy obidalariga, savdo yo'llariga xususan Amudaryo kechuvlariga nazar tashlashimiz kerak. Shu o'rinda aytish joizki, Surxondaryoning tarixida Amudaryo va uning bo'yida joylashgan Qadimiy Termiz haqida to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Amudaryo eramizdan avvalgi davrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, uning o'nlab kechuvlari olimlar tomonidan o'rganilgan. Bular: Termiz kechuvi bo'lib milodan avvalgi I asrdan to milodiy XX asrgacha faoliyat ko'rsatgan. Bu kechuv orqali Hind va Afg'on savdo shaharlaridan savdogarlarning Surxondaryo, Qashqadaryo va Janubiy Tojikistonga borishini ta'minlagan.

Amudaryoning katta kechuvlardan yana biri Cho'chqaguzar bo'lib, so'ngi o'rta asrlarda keng foydalanilgan. Uning 2 ta kemasi bo'lgan. Pattakesar kechuvi so'ngi o'rta asrlarda foydalanilgan. XIX asrda Buxoro bilan rus hukumati bilan kelishuv asosida Rossiyaga ijaraga berilgan. Rus harbiy va yuk kemalari uchun buxta barpo etilgan Sho'rob kechuvi miloddan avvalgi I asrdan boshlab, to milodiy XX asrgacha faoliyat yuritgan. Qadimgi Baqtriya shaxarlarini Sug'diyona bilan bog'lovchi asosiy yo'lining muhim bo'g'ini bo'lgan Bundan tashqari Amudaryoda Kelif kechuvi ham mavjud bo'lib, Buxoro va Qarshi orqali Balx, Kobul, Hirotga boruvchi asosiy kechuv bo'lgan. Bu kechuv so'ngi bronza davridan to XX asr boshlarigacha foydalanilgan. XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro hukumatiga yiliga 24000 tanga daromad keltirgan. Uning jami 6 ta kemasi bo'lgan. Kelifdan Kerki va ular oralig'ida ham Xo'jasolar, Oqqum bosgan, Mukri, Xo'jachambiz kabi mahaliy ahamiyatga ega kechuvlar ham mavjud bo'lgan. Bu kechuvlar so'ngi o'rta asrlarda foydalanilgan va har birida 1 tadan jami 3 ta kema mavjud bo'lgan. Bundan tashqari so'ngi o'rta asrlarda mavjud bo'lgan Burdaliq kechuvi (Burdaliq bekligida uchta joyda kechuv bo'lgan. Har birida bittadan kema bo'lgan). Asosan o'rta asrlarda foydalanilgan. Chorjo'y (Amul yoki Farob) kechuvi. Kechuvdan foydalahish ehtimol, bronza va ilk temir davridan boshlangan. O'rta asrlarda Marv shahrini Buxoro orqali O'rta osiyaning markaziy hududlari bilan bog'lovchi kechuv sifatida muhim o'rin tutgan. XIX asr oxirida Buxoro amiri xazinasiga 50000 tanga yillik daromad keltirib turgan. Xorazmda joylashgan Boqijon avliyo kechuvi, Eshon kechuvlari mavjud bo'lgan. Bu kechuvda 2 ta kema mavjud bo'lgan. Kerki

bekligida Mukri, Hazirati Ostona, Chorshanba, Xalach Cherma Xojachambaz, Xasameli Bashir kabi mahalliy ahamiyatga ega kechuvlar ham mavjud bo'lib, bularda jami 4 ta kema mavjud bo'lib, asosan so'ngai o'rta asrlarda foydalangan. Zahiriddin Muhammad Boburning yoniga Xusravshohning elchilari Uyoch kechuvidan o'tgandan so'ng mulozamat ko'rsatib keladi. Bundan tashqari –“Boburnoma” da Termiz, Kelif, Kerki, To'qqiz o'lim kechuvlari haqida gapirgan. Boburshoh Sulton Husayn elchilaridan shunday xabar kutadi.”Bizga Termiz, Kelif, Kerki kechivlaridan muncha kema yasang, ko'proq asboblarni tayyor qiling, Yuqorigi To'qqiz o'lim kechuvini yaxshi ehtiyot qiling desa edi”. Bobur Mirzo Xusravshohni qo'lga olgandan keyin undan ukasi Vali qachon kelishini va Amudaryoning qaysi kechuvidan o'tishini so'raganda Xusravshoh shunday javob beradi “Agar kechuv topsa, tez keladi. Biroq kechiklar suv ko'paygach o'zgaradi. U kechuvni suv olib ketdi degan maqol bor”.³

Eski Termizda yashovchi yoshi ulug' keksalarning aytishicha Amudaryoda Aleksandr Makedonskiy bostirib kelganda ko'prik qurganligini va daryo suvi past tashlaganda o'sha ko'prikning ustunlari ko'rinishini aytadi. Lekin afsuski bu ko'prikning ustunlari topilmagan. “Burdog'uy” ya'ni Cho'chqaguzar kechuvini Termizdan ancha oldin, Iskandar davrida asos solingan deb aytadi. “Burdog'uy” yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “mehmonxona” degan manoni bildiradi va bu nom Iskandar zamonida qo'yilgan. Burdog'uy kechuvi sultonlar asilzodalar o'tadigan bo'lgan. ⁴ Yunon olimlari esa Aleksandr Makedonskiy Eron shohi Doro III qo'shinlarini yengib Baqtriya poytaxti Baqtra shaxrini hamda Aorn, Drapsak singari mustahkam qal'alarni egallaydi. Ko'p o'tmay Bess qo'lga olinib, qatil qilinadi. Mil. av. 328-yilda Xorazm shohi Farasman Baqtradagi Iskandar qarorgohiga tashrif buyuradi va ittifoqchilik bitimi imzolaniadi. Shu boisdan Iskandar Xorazmga yurish qilmaydi. Mil.av. 329 yilda Oks yoki Amudaryo sohiliga yetib kelgan Yunon qo'shinlari bu azim daryodan o'tishga kema topolmadi. Ko'prik quray desa tevarakatrofda yog'och yo'q edi. Shuning uchun askarlarga somon tiqib mesh yasashni buyuradi. Shu meshda suzib olti kun deganda daryodan o'tib borib va Nautaka hozirgi Qashqadaryo viloyatiga kirib boradilar.⁵ Umuman olganda, yuqoridagi manbalarni tahlil qilsak, Amudaryo kechuvlari Termiz va Chorjo'y oralig'ida 10 dan ortiq kechuvlar mavjud bo'lgan va bu kechuvlar Amudaryo bo'yi aholisining iqtisodiy, siyosiy jihatdan rivojlanishiga, shu kechuvlar zaminida aholi manzilgohlarning payda bo'lishi va rivojlanishiga katta yordam berganligini xulosa qilishimiz mumkin.

³ Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” “o'qituvchi”. Tosh. 2008. 107-110-bet.

⁴ Surxon tongi 2021-yil 11-noyabr 84-son

⁵ Mahmud Azimov “Termiz tarixi”. 74-75 bet.

REFERENCES

1. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgai madaniyati. (Mil.avv.VIII-Mil. IV Asrlar). Tosh. "Inavatsiya-Ziyo" 2020.56-59.
2. O'ktam Mavlonov. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari:Shakllanish va rivojlanish bosqichlari. "Akademiya".Tosh.2008. 232-235 bet.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma" "o'qituvchi". Tosh. 2008. 107-110-bet.
4. Hofiz Tanish Al-Buxoriy. "Abdullanoma". Tosh. "Sharq", 2000. 130-136 bet.
5. Mahmud Azimov "Termiz tarixi". 74-75 bet.
6. Surxon tongi 2021-yil 11-noyabr 84-son